

**Ta'lim tashkilotlarida to'lov - kontrakt asosida o'qish bo'yicha  
ta'lim krediti shartnomasi № \_\_\_\_\_  
(xotin-qizlar uchun)**

\_\_\_\_\_ shaxar \_\_\_\_\_

Chet el kapitali ishtirokidagi "**Hamkorbank**" aksiyadorlik tijorat banki nomidan \_\_\_\_\_ yildagi № \_\_\_\_\_ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning \_\_\_\_\_ boshqaruvchisi \_\_\_\_\_, bundan buyon matnlarda "**Bank**" deb nomlanadi, bir tarafdin va fuqaro \_\_\_\_\_ bundan buyon matnda "**Kredit oluvchi**" deb nomlanadi, ikkinchi tarafdin hamda fuqaro \_\_\_\_\_ bundan buyon matnda "**Birgalikda kredit oluvchi**" deb nomlanadi, uchinchi tarafdin, hammalari birgalikda "Taraflar" deb nomlanadi, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan Kredit oluvchiga oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim krediti ajratadi, kredit oluvchi va birgalikda kredit oluvchilar esa, mazkur shartnomaga asosan kreditning asosiy qarz to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish majburiyatini oladi.

1.2. Kredit to'lovlilik, muddatlilik, maqsadlilik tamoyillari asosida beriladi.

**2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob qilish tartibi.**

2.1. Oliy ta'lim tashkiloti va kredit oluvchi/talaba o'rtasida tuzilgan to'lov-kontrakt asosida o'qitish shartnomasi (matnlarda "O'qitish shartnomasi" deb yuritiladi)ga muvofiq Bank Kredit oluvchiga:

a) O'qish uchun \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm miqdorida ta'lim krediti ajratadi.

2.2. Keyingi o'quv yili uchun o'qitish shartnomasida belgilangan to'lov miqdori va kredit oluvchining arizasidan kelib chiqib, kredit miqdori mazkur shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash orqali oshirib borilishi mumkin.

2.3. Kredit bo'yicha foiz stavkasi yillik 14% miqdorida belgilanadi, kredit uchun hisoblangan foizlar har uch oyda Moliya vazirligi mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan holda qoplanadi.

2.4. Kredit qarzdorlikni qaytarish mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qaytarish jadvali(1-ilova) asosida amalga oshiriladi. Bunda:

a) Kreditning asosiy qarzi talabning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi;

b) Kredit foizlarini to'lash kredit mablag'lari oliy ta'lim tashkilotiga o'tkazilgan sanadan boshlab har uch oyda Moliya vazirligi mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan holda qoplanadi.

2.5. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada kredit qoldig'iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

2.6. Mazkur shartnomaning ta'minotga oid shartlari bajarilgach, Bank oliy ta'lim tashkilotiga o'qitish shartnomasi bo'yicha yillik to'lovning to'liq miqdorini teng ulushlarda to'rt qismga bo'lish yo'li bilan o'tkazadi. Bunda:

a) kamida 25 foizi talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun har yili 15-sentyabrgacha yoki Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatgacha;

b) ikkinchi va undan keyingi bosqich talabalari uchun — har yili 1-oktyabrgacha, belgilangan to'lov miqdorining kamida 50 foizi — har yili 1-yanvargacha, 75 foizi — har yili 1-aprelgacha va 100 foizi — har yili 1-iyulgacha bo'lgan muddatda o'tkazib beriladi;

Kredit oluvchi tegishli to'lovni amalga oshirish uchun Bankka mazkur bandning mos sanalariga qadar yozma ravishda murojaat qilishi lozim.

2.7. Kredit oluvchining yozma arizasiga asosan, o'qitish shartnomasida nazarda tutilgan hollarda mazkur shartnomaning 2.6.-bandidagi to'lovlar o'qishning yarim yil yoki to'liq bir yil uchun to'lov summasini biryo'la amalga oshirish mumkin.

2.8. Kredit to'lovlarini qaytarish Kredit oluvchi/BKOning istagiga ko'ra, avtoto'lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o'tkazish yo'li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to'lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag'lar agar mablag' kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo'lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o'tgan qarz foizi, muddati o'tgan qarz tani, muddatli qarz foizi so'ngra muddatli qarz tanini so'ndirishga yo'naltiriladi. Agar pul mablag'i yetarli bo'lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.

2.9. Agar amalga oshirilgan to'lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

c) neustoyka(jarima, penya);

d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari

### **3. Taraflarning majburiyatlari.**

#### **3.1. Kredit oluvchi va Birgalikda kredit oluvchining majburiyatlari:**

3.1.1. Kredit shartnomasi shartlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish;

3.1.2. Kredit bo'yicha asosiy qarzni kredit shartnomasining 1-ilovasida belgilangan muddatlarda qaytarish;

3.1.3. Kreditlashning muddatlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik tamoyillariga rioya etish;

3.1.4. Bankning oldindan roziligini olmay turib, garovga qo'yilgan mulkni boshqa kreditorlar qarzi bo'yicha ta'minot sifatida garovga quymaslik;

3.1.5. Bankka yashash manzilini, telefon raqamlarini (uyali, uy, ish) elektron pochta manzilini, ijtimoiy tarmoqlardagi pochta manzillarini (Telegram, WhatsApp, IMO va boshqalar) haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etish. Ushbu manzillar orqali olingan har qanday ma'lumot Bank uchun qonuniy kuchga ega;

3.1.6. O'zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o'zgarganda, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o'zgarganda yoki mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda yoki o'zlari uchun maqbul bo'lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish. Ushbu talab bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan salbiy holatlarga Kredit oluvchi/BKO javobgar hisoblanadilar;

3.1.7. Kredit oluvchi/talaba o'qish davri tugamasdan talabalar safidan chiqarilsa 3 oy muddatda ta'lim krediti va unga qo'shilgan foizlar bo'yicha qarzlarni to'liq qaytarish;

3.1.8. Garov mulkiga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo'qolgan taqdirda zudlik bilan Bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o'n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulk ta'minotiga almashtirish;

3.1.9. Kreditni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to'langan mablag' kelgusi davrlarda so'ndirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, u holda to'lovni amalga oshirishdan 3(uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.10. Kredit asosiy qarz to'lovini kredit oluvchi va BKO bank kartasidan avtomat ushlab qolinishi uchun bankning "Avto-to'lov" xizmatiga ulash.

3.1.11. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

#### **3.2. Bankning majburiyatlari:**

3.2.1. Kredit oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, jumladan kreditlashga oid barcha xarajatlar haqida Kredit oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborot berish;

3.2.2. Mazkur shartnomaning 2.6. - bandidagi majburiyatlar to'liq bajarilganidan keyin 3 (uch) bank ish kuni ichida kredit ajratish;

3.2.3. Olingan kredit uchun Kredit oluvchi nomiga ssuda hisob raqamlarini ochish;

3.2.4. Kredit oluvchini kreditni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan xabardor qilish;

3.2.5. Kredit oluvchining so'rovi Bankda ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Kredit oluvchi tomonidan berilgan ariza va Kredit oluvchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda 1 ish kuni ichida shartnoma bo'yicha Kredit oluvchining majburiyatlari to'liq bajarilganini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.6. Shartnoma bo'yicha Kredit oluvchi majburiyatlarining bajarilmaslik sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so'rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka qo'llanishi natijasida xarajatlar ortishi haqida ogohlantirish;

3.2.7. Shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Kredit oluvchi bilan har qanday aloqa usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, Kredit oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.8. Mazkur shartnomaning 3.1.9.-bandiga muvofiq Kredit oluvchi/BKOning arizasi mavjud bo'lmagan holda, kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish hamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.9. Kredit oluvchining so'rovi olinganidan so'ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: kreditlash limiti, kredit bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi, asosiy summa bo'yicha qarz qoldig'i, navbatdagi to'lovlar miqdori, tarkibi va muddatlari (to'lovlar jadvali), kreditni muddatidan oldin miqdori, muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag'lari kredit bo'yicha qarzni so'ndirishga yo'naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.10. Kredit oluvchi shartnoma bo'yicha barcha majburiyatini to'liq bajargan sanadan boshlab uch ish kuni ichida garov mulkini taqiqdan chiqarish bo'yicha notariusga xat berish hamda garov mulkiga nisbatan Bank huquqlari haqidagi yozuvni garov reestridan o'chirish;

3.2.11. Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Kredit oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.12. Markaziy bankning asosiy stavkasi o'zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.8.-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va Kredit oluvchiga taqdim etish. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo'qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

3.2.13. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

## **4. Taraflarning huquqlari.**

### **4.1. Kredit oluvchi/BKOning huquqlari**

4.1.1. O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan ta'lim krediti berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish.

4.1.2. Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran ikki hafta ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilib kreditning foydalanilmagan qismidan voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Kredit oluvchi/BKO zimmasida qoladi;

4.1.3. Kreditni muddatidan oldin qaytarish. Bunda, kredit uchun foizlar kredit to'liq qaytarilgan kungacha mazkur shartnomaning 2.2.-bandiga muvofiq hisoblanadi;

4.1.4. Kredit ajratish va hisob-kitoblar bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish;

4.1.5. Bankdan majburiyatlarning o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashni talab qilish;

- 4.1.6. Kredit to'lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda to'lash;
- 4.1.7. Sug'urta yoki baholash xizmatlarini mustaqil tanlash;
- 4.1.8. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa huquqlardan foydalanish.

## **4.2. Bank huquqlari**

4.2.1. Kredit oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida kreditdan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida taraflarni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tarafdama bekor qilish;

4.2.2. Kredit berish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Kredit oluvchi/BKODan so'rab olish;

4.2.3. Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiylikiga shubha tug'ilganida, monitoring o'tkazish maqsadida, shuningdek muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Kredit oluvchi/BKOlarga qo'ng'iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.4. Garov mulkining holati va saqlanishi bo'yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;

4.2.5. O'zaro muzokaralarni (bayonnoma shaklida, telefon qo'ng'iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.6. Kredit oluvchining shartnomaviy majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, har qanday qonuniy choralarni ko'rish, jumladan Kredit oluvchi/BKONing har qanday mol-mulkidan majburiy ravishda undirish;

4.2.7. Quyidagi hollarda kredit oluvchiga kredit ajratishni to'xtatish va kreditni muddatidan oldin undirib olish:

a) kredit foizlarini 30 kundan ortiq muddatda to'lamasa yoki muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba qaytarish jadvalidan kechiktirib to'lash) kechiktirib to'lasa;

b) oliy o'quv yurti talabalari safidan chiqarilsa yoki o'qishni vaqtinchalik to'xtatganida;

4.2.8. Kredit oluvchining joriy yoki muddati o'tgan majburiyatlari (qarzlari)ni so'ndirish maqsadida, mablag'larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

a) Kredit oluvchi/BKONing har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talablarini qo'yish;

b) Kredit oluvchi/BKONing Bankdagi bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan.

4.2.9. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

## **5. Taraflarning javobgarligi.**

### **5.1. Kredit oluvchi va Birgalikda kredit oluvchining javobgarligi:**

5.1.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan davrda kechiktirilgan to'lovlar uchun shartnomaning 2.3.-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to'laydi.

5.1.2. Asosiy qarzni o'z muddatida to'lamagan taqdirda, to'lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,1 foizi miqdorida Bankka penya to'laydi.

### **5.2. Bankning javobgarligi.**

5.2.1. Kredit berish majburiyatini bajarmaganida yoki o'z vaqtida bajarmaganida Kredit oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.2. Ushbu shartnomaning 3.2.10-bandidagi majburiyatlarini bajarmasa, har bir kun uchun garov qiymatining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.3. Shartnoma bo'yicha hisoblangan neustoykani to'lash/ixtiyoriy to'lash, taraflarni shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo'llash huquqidan mahrum qilmaydi.

5.4. Qarzdorlik bo'yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko'p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

## **6. Shartnomani bekor qilish asoslar.**

6.1. Kredit oluvchi(BKO)ni Bank kredit ajratishdan avval mavjud bank kartalarini “Avto-to‘lov” xizmatiga ulash majburiyati haqida ogoxlantirishi lozim.

6.2. Kredit oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.10-bandi ijrosi ta‘minlamagan taqdirda, bank kredit berishni rad etishga haqli.

## **7. Kredit ta‘minoti.**

7.1. Kredit ta‘minoti \_\_\_\_\_ kafilligi hisoblanadi. Ta‘minot garovga qo‘yilishidan avval Kredit oluvchi hisobidan kreditning to‘liq muddatiga sug‘urtalanadi, sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisi Bankka taqdim etiladi.

7.2. Ta‘minotga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo‘qolgan taqdirda, shuningdek kafil mehnat yoki to‘lov qobiliyatini yo‘qotgan, muomalaga layoqatsiz deb topilgan, vafot etgan va boshqa hollarda zudlik bilan Bankka xabar berish va ta‘minotni 10 (o‘n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulk ta‘minotiga almashtirishi shart.

## **8. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.**

8.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan e‘tiboran kuchga kiradi va taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunlariga qadar amalda bo‘ladi.

8.2. Shartnoma shartlarini o‘zgartirish yoki bekor qilish qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Shartnomaga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflar imzolaganidan so‘ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o‘zgartirish, qo‘shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

8.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan avval bekor qilishi va undiruvni garovdagi yoki boshqa mol-mulklarga qaratishi mumkin:

a) shartnoma tuzishda yoki kredit operatsiyalarini bajarishda Kredit oluvchi tomonidan Bankka noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;

b) Kredit oluvchi/BKO yoki talabani psixonevrologik, psixiatrik, giyohvandlik va alkogolizmdan davolash joylarida hisobga olinishi to‘g‘risida ma‘lumot bo‘lgan taqdirda;

c) kreditni qaytarish jadvali kamida ikki va undan ortiq marotaba buzilgan taqdirda;

d) kredit va unga hisoblangan foizlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilganida;

e) mazkur shartnomaning 3.1.8. bandidagi majburiyat bajarilmaganida;

f) kredit oluvchi/BKO garovga olingan transport vositasini monitoring qilinishiga to‘sqinlik qilganida, uni yashirganida, Bankka taqdim qilmaganida;

g) garovga olingan transport vositasi Bankning roziligisiz uchinchi shaxslarga boshqarishga, ijaraga, tekin foydalanishga, boshqa har qanday asoslarga ko‘ra berilsa, shuningdek, noqonuniy ravishda tasarruf etsa;

h) kredit oluvchi/talaba talabalar safidan chiqarilsa;

i) kredit oluvchi/talaba oliy o‘quv yurtida o‘qishni vaqtinchalik to‘xtatganida;

j) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra.

## **9. Maxfiylik**

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma‘lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma‘lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3. Mazkur talab butun shartnoma muddatida hamda shartnoma muddati tugaganidan so‘ng 3 yil amal qiladi.

## **10. Alohida shartlar, kafolatlar va bildirishlar**

10.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi Bankka uning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi: Kredit oluvchi manfaatdor bo'lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta'minlashda; Kredit oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyat-larining bajarilishini ta'minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda; ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida; Shartnomaning ijrosini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlarni Kredit oluvchi/BKOga yetkazishda.

10.2. Kredit oluvchi/BKO to'lov jadvali asosida kredit bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Kredit oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

10.3. Bank yuborgan SMS xabarnomalar, ogohlantirish xatlari, qilingan qo'ng'iroqlar va boshqalar sud va boshqa organlarda dalil bo'lib xizmat qiladi.

## **11. Fors-major holatlari.**

11.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

11.3. Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

## **12. Korrupsiyaga qarshi kurashish.**

12.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi. Ana shunday taklif bildirilganida, ikkinchi taraf, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari bunday takliflarni rad qilishi shart.

12.2. Agar shartnoma ishtirokchilaridan birida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

12.3. Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

12.4. Pora evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

## **13. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar**

13.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatda ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

13.2. Barcha nizolar filial/BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

13.3. Mazkur shartnoma va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Kredit oluvchida saqlanadi.

#### 14. Taraflarning tasdig'i, manzillari, to'lov rekvizitlari va imzolari.

Kredit oluvchi/BKO kredit bo'yicha barcha ma'lumotlar shartnoma tuzilishidan avval unga bepul taqdim etilgani va ushbu shartnoma imzolanmasidan oldin tanishib chiqish uchun o'zi bilan olib ketishi mumkinligi haqida ogohlantirilganini tasdiqlaydi.

##### Kredit oluvchi

Manzil: \_\_\_\_\_  
Shaxsini tasdiqlovchi xujjat(ID):  
Seriya \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ da berilgan  
fuqaro: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(imzo)

##### Birgalikda kredit oluvchi

Manzil: \_\_\_\_\_  
Shaxsini tasdiqlovchi xujjat(ID):  
Seriya \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ da berilgan  
fuqaro: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(imzo)

##### Bank

Manzil: \_\_\_\_\_  
Bank: \_\_\_\_\_  
x.r: \_\_\_\_\_  
MFO: \_\_\_\_\_  
INN: \_\_\_\_\_  
Boshqaruvchi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(imzo)

[www.hamkorbank.uz](http://www.hamkorbank.uz)

Tel: 0-800-1-200-200

**Hurmatli garz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu esa o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.**

Shartnoma mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

\_\_\_\_\_ "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 20 \_\_ yil

(imzo) (Kredit oluvchi FISH)

Shartnoma mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

\_\_\_\_\_ "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 20 \_\_ yil

(imzo) (BKOning FISH)

\_\_\_\_\_ kungi imzolangan №\_\_\_\_\_ - sonli kredit shartnomasi bo'yicha kredit va foizlarni **qaytarish jadvali**

№	To'lov kuni	Muddati o'tadigan kun	Asosiy kredit to'lov summasi	Xisoblangan foizning kaytarilish summasi	Jami to'lov	Sundirilguncha kredit qoldig'i summasi	Sundirilgandan keyingi kredit qoldig'i summasi
1							
2							

Ushbu qaytarish jadvalida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish majburiyati olaman. Bankning "Avto-to'lov" xizmati orqali shaxsiy bank kartamdan qaytarish jadvaliga asosan kredit mablag'ining oylik to'lovlarini undirib olinishiga qarshiligim yo'q.

ID: \_\_\_\_\_

Parol: \_\_\_\_\_

**MBXO/UBXO boshlig'i**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_

**Kredit oluvchi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_

**Kredit mutaxassisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ yil